



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIK VAZIRLIGI**

Q A R O R I

2025-yil “31” iyul 42 q/q / 11 - q/q - son Toshkent sh.

**Pedagog va rahbar xodimlarning
bazaviy lavozim maoshlarini
oshirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to‘g‘risida” 2025-yil 2-iyundagi PF–91-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliy ta‘lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida” 2008-yil 1-avgustdagi 164-son qarorining 4-ilovasidagi 11-bandini bajarish maqsadida

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 2-iyundagi PF–91-son Farmoniga muvofiq budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi miqdori oshishi munosabati bilan oliy ta‘lim tashkilotlarining professor-o‘qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lashning bazaviy lavozim maoshlari Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qayta ishlab chiqilganligi inobatga olinsin.

2. **2025-yil 1-avgustdan** boshlab oliy ta‘lim tashkilotlarining professor-o‘qituvchilar tarkibining bazaviy lavozim maoshlari miqdori 1-ilovaga, rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdori 2-ilovaga hamda boshqa xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Respublika oliy ta‘lim tashkilotlari rektorlari, filiallar direktorlari: oliy ta‘lim tashkiloti rahbar, professor-o‘qituvchilar va boshqa xodimlari ish haqlarini 1-3-ilovalardagi bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari bo‘yicha o‘z vaqtida qayta hisob-kitob qilish;

2025-yil 1-avgustdan e‘tiboran oliy ta‘lim tashkilotlarining professor-o‘qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlari mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha bazaviy lavozim maoshlari miqdorining o‘zgarishi munosabati bilan qo‘shimcha talab etiladigan mablag‘lar bilan o‘z vaqtida ta‘minlash choralarini ko‘rsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 27-sentabrdagi 35-q/q, 17-q/q-son qarori 2025-yil 1-avgustdan boshlab o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

5. Mazkur qaror ijrosining nazorati Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari S.Buzrukhonov hamda Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri o'rinbosari R.Turdiboyevlar zimmasiga yuklansin.

**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vaziri**



K. Sharipov

**Kambag'allikni qisqartirish va bandlik
vaziri**



B. Zaxidov

Oliy ta'lim tashkilotlarining professor-o'qituvchilar tarkibi mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari MIQDORI

(so'm)

Lavozimlar nomi	Bazaviy lavozim maoshlari miqdori
1. Kafedra mudiri:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	14 146 482
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	13 271 444
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmagan	11 703 662
2. Professor:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga va professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	13 490 202
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga va dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	12 688 082
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	12 104 722
3. Dotsent:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	11 411 983
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	10 682 784
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmagan	9 552 521
4. Katta o'qituvchi:	
ilmiy darajaga va ilmiy unvonga ega bo'lgan	9 953 583
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan	9 370 224
ilmiy unvonga yoki ilmiy darajaga ega bo'lmagan	8 568 102
5. Assistent, o'qituvchi:	
ilmiy darajaga va ilmiy unvonga ega bo'lgan	8 786 864
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan	8 203 501
ilmiy unvonga yoki ilmiy darajaga ega bo'lmagan	7 620 142
6. O'qituvchi-stajyor	6 745 101

Izohlar:

1. Ushbu ilovada nazarda tutilgan bazaviy lavozim maoshlari kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida (markazlar, institutlar, fakultetlarda) tegishli lavozimlar uchun ham qo'llaniladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

2. Professor unvoniga ega bo'lmagan, biroq fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan, professor lavozimiga bir muddatga qabul qilingan shaxslarga bazaviy lavozim maoshi 2025-yil 1-avgustdan boshlab - 11 411 983 so'm miqdorda belgilanadi.

3. Dotsent lavozimiga bir muddatga qabul qilingan professor-o'qituvchilarga mos ravishda ushbu ilovaning "3. Dotsent" bo'limida nazarda tutilgan bazaviy lavozim maoshlari belgilanadi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil "31" iyul
42-8/10 11-0/10 - son qaroriga
2-ilova

**Oliy ta'lim tashkilotlarining rahbar xodimlari mehnatiga haq to'lash
bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari
MIQDORLARI**

(so'm)

Lavozimlar nomi	Bazaviy lavozim maoshlari miqdori
1. Rektor:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	15 021 522
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	14 438 162
2. Prorektor:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	14 219 404
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	13 490 202
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmagan	12 396 402
3. Filial direktori:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	14 219 404
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	13 490 202
4. Filial direktorining o'rinbosari:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	13 490 202
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	12 870 383
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmagan	11 922 422
5. Dekan:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	13 490 202
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	12 688 082
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmagan	11 411 983
6. Dekan o'rinbosari:	
fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan	12 688 082
fan nomzodi yoki falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan	12 104 722
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lmagan	9 953 583

Izoh:

Ushbu ilovada nazarda tutilgan bazaviy lavozim maoshlari kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida (institutlarda, fakultetlarda) tegishli lavozimlar uchun ham qo'llaniladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik vazirligining 2025-yil "31" iyul
42-Q/19 11-Q/19 - son qaroriga
3-iloVa

**Oliy ta'lim tashkilotlarining boshqa xodimlari mehnatiga
haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlari
MIQDORI**

(so'm)

Lavozimlar nomi	Bazaviy lavozim maoshlari miqdori
1. Axborot texnologiyalari markazlari muhandislari:	
1 – toifali	2 027 475
2 – toifali	1 879 907
Toifasiz	1 738 270
2. Madaniyat va san'at ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar (pedagoglar) tayyorlovchi oliy ta'lim tashkilotlari konsertmeysterlari:	
Yetakchi konsertmeyster	4 973 785
Konsertmeyster	4 427 001
3. Ilmiy kengashning ilmiy kotibi, oliy ta'lim tashkiloti kengashining kotibi:	
ilmiy darajaga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan	6 246 814
ilmiy darajaga ega bo'lmagan	5 201 628
4. Ishlab chiqarish ta'limi ustasi	1 879 907